



THE ROLE OF SACRED SITES IN THE ADMINISTRATIVE-TERRITORIAL CHANGES AND THE FORMATION OF NEW NEIGHBORHOODS IN THE TOPOGRAPHY OF THE CITY OF SAMARKAND

Javlon Tursunov

Doctoral Student

Samarkand State University named after Sharof Rashidov

Samarkand, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Samarkand, Afrosiab, Zoroastrianism, relief, administrative-territorial changes.

Received: 04.08.25

Accepted: 04.08.25

Published: 04.08.25

Abstract: The sacred places of Samarkand have played a decisive role in the formation of the urban environment since ancient times. The article analyzes information about the administrative-territorial changes in the relief of the city of Samarkand and the role of sacred places in the formation of new guzars.

SAMARQAND SHAHRI TOPOGRAFIYASIDA MAMURIY-XUDUDIY O'ZGARISHLAR VA YANGI GUZARLAR SHAKLLANISHIDA MUQADDAS QADAMJOLARNING O'RNI

Javlon Tursunov

Doktorant

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Samarqand, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Samarqand, Afrosiyob, zardushtiylik, topografiya, ma'muriy-hududiy o'zgarishlar.

Annatatsiya: Samarqandning muqaddas qadamjolari qadim zamonlardan beri shahar muhitining tuzilishi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lган. Ushbu maqolada Samarqand shahri topografiyasida mamuriy-xududiy o'zgarishlar va yangi guzarlar shakllanishida muqaddas qadamjolarning o'rni to'g'risidagi ma'lumotlar tahlil qilingan.

РОЛЬ СВЯЩЕННЫХ МЕСТ В АДМИНИСТРАТИВНО-ТЕРРИТОРИАЛЬНЫХ ИЗМЕНЕНИЯХ И ФОРМИРОВАНИИ НОВЫХ МАХАЛЛЕЙ В ТОПОГРАФИИ ГОРОДА САМАРКАНД

Джавлон Турсунов

Докторант

Самарканского государственного университета имени Шарофа Рашидова

Самарканд, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	Самарканд, Самарканда с древнейших времён играли решающую роль в формировании городской среды. В статье анализируются сведения об административно-территориальных изменениях рельефа города Самарканда и роли священных мест в формировании новых газаров.
Afrosiab, зороастризм, рельеф, административно-территориальные изменения.	

Kirish. Zardushtiylik va ilk Islom diniy obyektlari joylashgan mustahkam shaharcha bo‘lgan qadimiylar Afrosiyob hududida muqaddas markazlar atrofida aholi punktlarini birlashtirishning an’analari arxeolog olimidan o‘rganilgan. Islom shahar an’analarda mahalla nafaqat ma’muriy birlik, balki oilaviy, kasbiy va ma’naviy aloqalar muhim rol o‘ynagan ijtimoiy-madaniy hamjamiyat shaklidir. Samarqandda maqbaralar, masjidlar, xonaqohlar kabi muqaddas joylar atrofida ko‘plab mahallalar shakllandi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Muqaddas qadamjolar nafaqat ramziy markazga, balki kundalik hayotning amaliy yadrosiga aylandi. Bunday joylarda madrasalar, jamoat oshxonalar, hovuzlar, karvonsaroylar joylashgan. Natijada Shoxizinda, Ruhobod, Amir Temur kabi yirik maqbaralar atrofida butun turar joylar tashkil etildi. Ushbu mahallalar shahar ahonisining madaniy o‘ziga xosligini mustahkamlabgina qolmay, balki ma’muriy rol ham o‘ynagan. Buxoro amirligi va Rossiya imperiyasi davrida ular oqsoqollar boshchiligidagi o‘zini o‘zi boshqarish birliklari sifatida qaralgan. Mahalla nomlari ko‘pincha maqbara yoki avliyolar nomi bilan atalgan.

VIII asrdan Samarqandda islom dini yoyila boshlanadi. Yangi turdag‘i binolar-juma masjidlari, maqbaralar, minoralar, xonaqohlar shahar morfologiyasini belgilay boshlaydi. Shaharsozlik o‘zgarishlari, ayniqsa, Temuriylar davrida kuchayib, Amir Temur, Bibixonim va Shoxizinda kabi yirik me’moriy ansambllar barpo etilgan. Shunday qilib, Samarqanddagi muqaddas joylar nafaqat tarixiy xotirani saqlab qoldi, balki shahar taraqqiyotini ham yo‘naltirdi.

Samarqandning umumiy tuzilishida so‘fiylik markazlari-xonaqohlar alohida o‘rin tutadi. Bunday ob’ektlar, shahar hududida yoki savdo va karvon yo‘llari yaqinida joylashgan bo‘lib, shu bilan shahar hududining kengayishiga va yangi aholi punktlarining paydo bo‘lishiga hissa qo‘shtan.

So‘fiy markazlari nafaqat ma’naviy muassasalar, balki funktsional tuzilmalar sifatida ham xizmat qilgan. Ular ziyoratchilarni qabul qilishgan, kambag‘allarni boqishgan, diniy bilimlarni o‘qitish va tarqatishni tashkil qilishgan. Bunday joylar atrofida odamlarning doimiy oqimi tufayli

yangi mahallalar va shahar atrofi o'sishiga turtki bo'lgan uylar, do'konlar, ustaxonalarga ehtiyoj paydo bo'lgan.

Natijalar va muhokama. VIII-IX asrlarda Islomga o'tish bilan diniy inshootlar, ayniqsa masjidlar va maqbaralar shahar landshaftining ajralmas elementlariga aylandi. Ularning joylashuvi mahallalarning tartibini, ko'chalarining yo'naliшини, bozorlar va shahar darvozalarining joylashishini belgilab berdi. Topografik va arxeologik ma'lumotlarni tahlil qilish asosida muqaddas ob'ektlar «diqqatga sazovor joylar» rolini o'ynagan, ular atrofida turar-joy va jamoat tuzilmalari shakllangan. Shunday mahallalardan biri Chokardiza mahallasi hisoblanadi.

Chokardiza Samarqand tarixida muhim o'rinni tutgan, uning iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy jihatdan rivojlanishida hal qiluvchi rolni o'ynab kelgan maskan hisobnadi. Chokardiza mahallasi IX asr oxirida paydo bo'lganligi tarixiy manbalarda qayd etiladi. Samarqandning janubi-sharqida joylashgan mazkur qabristonga islam olamining yirik vakillari dafn qilingan. Shuning uchun ham qabriston aholi orasida muqaddas qadamjo sifatida qadrlangan va atrofida mahalla shakllangan. Chokardiza mahallasi XIX asrda simoli-sharqda Yahudiyon, janubda Faqih Abulays Samarqandiy, Jo'gixona (mahalliy lo'lilar kvartali), g'arbda Zomini, Sharqda Obimashhad kanali (hozirgi Siyobcha) bilan chegaralangan. Qabristonga 944 yilda Imom al Motrudiy dafn etilgan. XII asrning birinchi yarmida yashagan olim-tarixchi, Kitob al-qand fi tarizi Samarqand (Qandiya) asarining Abu Hafs Najmiddin Umar ibn Muhammad Nasafi As-Samarqandiy, Fiqhshunos olimlar Burhoniddin Marg'inoniy va Faqih Abulays Samarqandiyalar ham shu yerga dafn etilgan. O'rta asrlarda Amir Temur arki-a'losidan Chokardiza qabristoniga borgan yo'l bo'lgan. Bu yo'l hukmdor qal'asining Registon maydoniga qaragan Ark darvozidan chiqib, Tillakori madrasasi oldidan o'tib borgan. XVIII asr oxirida Buxoro Amiri Amir Shohmurod Chorsu ansamblini ana shu ko'cha bo'yiga qurgan edi. Bundan ko'rinishdiki shahar markazidan uncha uzoq bo'limgan hududda joyalshgan ushbu qadamjo, mahallalarning, yo'llarning, binolarning joylashuvida ham muhim o'rinni tutgan.

Islom olamida o'zining mashhur asari "Tanbeh ul g'ofiliyn" asari bilan tanilgan Faqih Abulays Samarqandiy mahallasi X asrda Samarqandning janubi-sharqida Chokardiza mahallasiga tutash hududda paydo bo'lgan. Shimolda Chokardiza, janubi-sharqda Mirzo Po'lodi va Yalangbek, shimoli-sharqda Darizanjir mahallalari bilan chegaralangan. Bu yerda X asrning taniqli olimi Abulays Nasr ibn Muhammad Samarqandiy yashaganligi uchun mahalla nomi ham shunday atalgan. Olim vafotidan keyin Chokardiza qabristonida dafn etilgan. Uning avlodlari bu mahallada XVIII asrgacha yashaganligi ma'lum. Ulardan biri Jaloliddin Fazlulloh Abulays Samarqandiy bo'lib, 1466-1469 yillarda undan Alisher Navoiy tahsil olgan edi. Mazkur mahallaning shakllanishiga ham Chokardiza qabristoniga dafn etilgan shaxs-Faqih Abulays Samarqandiyning xalq orasidagi hurmat-e'tibori sabab bo'lgan.

Samarqandning janubi-sharqiy chekkasida – shahar chetida joylashgan Xo‘ja Abdu Darun maqbarasi va Chokardiza qabristoni oralig‘idagi hudud Samarqandning eng aholi gavjum hududi hisoblanadi. Bu muqaddas qadamjo ziyoratgohga aylanganidan so‘ng uning atrofida butun boshli mahalla paydo bo‘ladi. Bu muqaddas ob‘ektning shaharning muayyan ma’muriy-hududiy birligining rivojlanishiga bevosita ta’sirini ko‘rsatadi. “Qandiya” kitobida Imom Moturudiy va Imom Abul Qosimlar tilidan shunday naql keltiriladi: “Shayx Abu Mansur Moturudiy va Abul Qosim Samarqandiylar vasiyat qilgan edilarki, meni Chokardiza qabristoniga dafn qilingizlarkim, Hazrati XojaAbdu Darun bizga shafoat qilishni va’da qilgan edilar va ul zoti barakotning shafoatlaridan benasib qolmaylik. Zerokim, Hazrati Abdu Darun hayotlik vaqtlarida aytgan edilarki, “Biz qabrimiz atrofidagi yarim farsax mavzeni shafoat qilurmiz” . Temuriylar davrida mazkur maqbara yaqinida Abu Said Mirzo tomonidan Sulton Xovand Bikaga bag‘ishlab maqbara qurilishi ham bu yerda Xo‘ja Abdu Darun maqbarasining joylashganligi bilan bog‘liqdir.

Ilk islom davrlarida Samarqandda “Nomozgoh” nomi bilan ataluvchi joy bo‘lganligi tarixdan ma’lum. Ya’ni Samarqandda ilk islom davrlarida nomozgohlar ham muqaddas qadamjo sifatida ko‘rilgan va shaharning tarixiy topografiyasining shakllanishida muhim rol o‘ynagan. Arxeologik tadqiqotlarga muvofiq Samarqandning eng qadimgi Nomozgohi hozirgi SamMI klinikasi (Rudakiy va Dahbed ko‘chalari kesishgan joyda) hududiga to‘g‘ri keladi. Bu yerda X-XI asrdan boshlab Raboti G‘oziyon madrasasi, masjid va Muhammad ibn Fuzayl Balxiy (931 yilda vafot etgan) mozoridan iborat kompleks joylashgan . Hozirgi kungacha u yerda faqat shayxlar va o‘rta asrlarning boshqa islom olimlari dafn etilgan kichik dahma saqlanib qolgan. Nomozgoh xarobalari XX asr boshida V. L. Vyatkin tomonidan qisman qazib o‘rganilgan. “Qandiya” da keltirilishicha, “Ka’bai muazzama, Masjidi Aqso, Jome’i Banni Umiyya va rasul alayhissalomning tabarruk ravzalaridan boshqa, ushbu G‘oziyalar raboti masjidi kabi ziyoratgoh masjid yo‘qdir”. Bundan kelib chiqadiki ushbu hudud Samarqandning eng mo‘tabar go‘shalaridan biri bo‘lgan. Qandiyada Samarqandning ilk Namozgohini Hazrati Shohizinda (Qusam ibn Abbos) o‘z qo‘llari bilan qurbanligini, musulmonlar har yili ikki marotaba o‘nta-o‘nta, yuzta-yuzta guruhlarga bo‘linib, shahar tashqarisidagi namozgohga borganliklarini keltiradi .

Nomozgoh katta musulmon bayramlarida ibodat qilish uchun mo‘ljallangan edi. V. L. Vyatkin hududni to‘liq o‘rgana olmagan . B. D. Kochnevning fikricha, Nomozgoh temuriylar davrida qayta qurilgan va taxminan 13,6 hektar maydonni egallagan . Ushbu majmua XVIII asrda Samarqandda yuz bergan inqirozga qadar ham mavjud bo‘lgan. Nodirdevonbegi unga parallel ravishda shaharning qarama-qarshi - janubiy-g‘arbiy qismida XVII asrning 30-yillarida yangi Nomozgohni bunyod etgan .

G‘otfar mahallasi IX asrda paydo bo‘lgan va qadimgi Nomozgohga tutash mahalla bo‘lganligi manbalardan ma’lum. Firdavsining “Shohnoma» asarida keltirilishicha, Gotfar ismli

shaxs arablar hujumidan oldin shaharning harbiy boshlig'i bo'lgan. Shimoli-sharqda hozirgi Afrosiyob shahrchasida mavjud bo'lgan shahriston bilan chegaradosh bo'lgan. Mahalla XVI asrdagi yuridik hujjatlarda eslatib o'tilgan. Mahalla hududida G'otfariy taxallusiga ega bo'lgan Xo'ja Shamsiddin, Xo'ja Mavlono kabi olim va shoirlar yetishib chiqqan. Mahalla Afrosiyob shaharchasining ma'muriy chegarasidan tashqarida joyalshganligi sababli ham keyinchalik Amir Temur bunyod etgan Samarqand shahriga tutashib ketadi va keyingi asr manbalarida ham tilga olinadi.

Ruhobod majmuasi - taniqli Shayx Burhoniddin Sag'arjiy dafn etilgan joy. Maqbara atrofida Temuriylar davrida bu yerda madrasalar, masjidlar va karvonsaroylar quriladi. Afrosiyobning qadimiylaridan tashqarida joylashgan ushbu hudud shahar hayotining yangi markaziga aylanadi. Ruhobod mahallasi biroz kechroq - XIX asr boshlarida paydo bo'lgan. Shimol va sharqdan Kulolon, janubda Amir Temur, g'arbda Xarroton mahallalari bilan chegaradosh bo'lgan.

Maxdumi Xorazmiy mahallasi XV asr oxiri-XVI asr boshlarida paydo bo'lgan. Shimolda Qozi Kalon, Sharqda Yahudiyon, janubda Qozi G'ofur, g'arbda Urmitani mahallalari bilan chegaralangan. Maxdumi Xorazmiy nomi o'z vaqtida Xuroson va Movarounnahr, Hindiston va Fors aholisiga keng ma'lum bo'lgan. Uning asl ismi Kamoliddin Husayn bo'lib, 1465 yilda tug'ilgan. Kubroviylik tariqati vakili bo'lgan Shayx Husayn Xorazmiy 1517 yilda Samarqandga ko'chib kelgan. Shayx Husayn Ulugbek madrasasi yaqinidagi kichik bir yer uchastkasini sotib oladi va bu yerda masjid, xonako, madrasa, xizmatchilar uchun xujra va bemorlarni qabul qilish uchun xonalar qurgan. O'sha davrda O'rta Osiyoda nogiron bolalarni o'qitish uchun o'quv muassasalari bo'Imagan, ammo ba'zi madrasalarda ko'r bolalar uchun boshpanalar mavjud bo'lib, ularda Qur'on suralarini yodlab, diniy ta'lim olishgan. Maxdumi Xorazmiy Samarqandda birinchi bo'lib shunday boshpana yaratgan. Madrasa XX asrgacha faoliyat yuritgan. Hozirgi kunda ushbu majmuaning faqatgina masjid qismi saqlanib qolgan.

Ko'k masjid mahallasi Samarqandning shimoli-g'arbida XIV asr oxiri - XV asr boshlarida Amir Temur arki ro'parasida paydo bo'lgan. Shimolda Yusufboy, Sharqda Qo'shhavuz, janubda Tagisho'r, Bo'stonixon, g'arbda Novadon, Bog'imaydon mahallalari bilan chegaralangan.

Muqaddas qadamjolarning eng yorqin misollaridan biri Shoxizinda kompleksidir. Amir Temur oilasi a'zolari, sarkardalar va mashur shaxlarning maqbaralari Qusam ibn Abbos qabriga olib boradigan markaziy o'q bo'ylab qurilgan. Shohizinda ansambli Samarqand tarixiy topografiyasi tarkibida alohida o'rin tutadi. Qadimgi Afrasiyobning janubida joylashgan, hozirgi Samarqand shahrining eng qadimgi qismi bo'lgan bu me'moriy majmua shahar muhitining ma'naviy va topografik shakllanishining asosiy elementiga aylandi.

Shohizinda ziyoratgoh sifatida-Muhammad Payg'ambarning amakivachchasi Qusam ibn Abbosning dafn etilgan joy hisoblanadi. Shu jihatdan hudud muslimonlarni o'ziga jalb qilib,

atrofida yo'llar, karvonsaroylar, bozorlar va turar-joy mahallalari tarmog'ini yaratadi. Ushbu tuzilmalar qo'shni hududlarning shaharsozlik rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ansambl Temuriylar davrining me'moriy uslubining eng yorqin namunasiga aylanadi, bu shaharning boshqa qismlarining joylashuvi va dizayniga ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, Shohizindaga yaqinida asrlar davomida muhim obyektlar, qabriston, madrasalar, diniy inshootlar, shu jumladan keyinchalik maqbaralar qurilgan. Bu Samarcandning shimoli-sharqiy hududining taraqqiy etishiga sabab bo'ladi. Shahar markazi XV asrda Registon hududiga ko'chirgandan keyin ansambl Afrosiyobning aholi tomonidan eng ko'p ziyorat qilinadigan hududi bo'lib qoladi. Shohizinda ansambl nafaqat islom me'morchiligining noyob yodgorligi, balki Samarcandning tarixiy topografiyasini shakllantirishda muhim rol o'yнagan.

Amir Temur maqbarasi Temuriylar hilxonasi sifatida dastlab markaziy siyosiy va muqaddas qadamjo sifatida yuzaga keldi. Uning atrofida XV asrda shu nomdagi mahalla paydo bo'ldi. Mazkur mahalla shimolda Ruhobod, Sharqda Masjidi Naqshin, g'arbda Xarroton mahallalari bilan chegaradosh bo'lган. Sovet davlati davrida mahalla nomi "Qizil tong mahallasi" mahallasiga o'zgartirilgan.

Samarcandning Oqsaroy mahallasi ham XV asrda shaharning janubi-sharqida paydo bo'lган. Shimolda Amir Temur maqbarasi, Sharqda Masjidi Naqshin, janubda Doniyorbek, g'arbda Xarroton mahallasi bilan chegaradosh bo'lган.

Madrasayi Safed mahallasi XV asrda Samarcandning janubida paydo bo'lган. Shimolda Eskiqalandarxona, sharqda Xonaqoh, Ibrohimxo'ja, G'arbda Luchchakon, janubda Nisbatdor mahallalari bilan chegaradosh bo'lган. Mahalla hududida 1455-1456 yillarda Xo'ja Ubaydulloh Ahror tomonidan qurilgan ikki qavatli madrasa qurilganligi sababli mahalla nomi undan olingen.

Samarcand shahrida XVI asrdan keyin Muhammad Shayboniyxon nomi bilan ataladigan mahalla bo'lganligi vaqf hujjatlaridan ma'lum. Ushbu mahalla "Xoni Shahid Muhammad Shayboniyxon" deb atalgan. Bu haqda ushbu mahalla masjidining 1835-yilda rasmiylashtirilgan vaqf hujjatida ma'lumot keltirilgan. Hujjatdan ma'lum bo'lishicha, mahalla Shoxizinda kompleksiga tutash bo'lган. Mazkur mahallaning paydo bo'lishi Muhammad Shayboniyxonning halok bo'lishidan keyin Turkistonga Ismoil Safaviy boshchiligidagi Eron askarlarining hujumi bilan bog'liq jarayonlarning xalq ongiga ta'siri, Muhammad Shayboniyxonning e'tiqodiga ko'ra shia mazhabida bo'lган Ismoil Safaviy tomonidan o'ldirilishi natijasida unga shahid maqomining berilishi asnosida yuz bergen bo'lishi mumkin. Shu nuqtai nazardan o'z vaqtida Shayboniylar madrasasi ichida joylashgan Shayboniylar dahmasi ham aholi tomonidan ziyorat qilinadigan muqaddas qadamjo bo'lganligi shubhasiz.

Sovet davrida Samarcand topografiyasiga jiddiy o'zgarishlar kiritildi. Ko'p jihatdan muqaddas qadamjolarni ziyorat qilish taqiqlandi. Masjidlar yopildi, maqbaralar muzeylarga yoki

omborxonalarga aylantirildi, mahallalar ma'muriy funksiyalarini yo'qotdi. 1988 yil boshida Samarqandda 870 ta ko'cha va 100 ta mahalla kvartallari mavjud bo'lib, ulardan 103 tasi Siyob tumanida, 25 tasi Bog'ishamol tumanida, 32 tasi Temiryo'l tumanida joylashgan . Juda ko'plab mahalla va ko'chalar nomlari o'zgartirildi. Samarqand shahrining ruslarga tegishli qismi 1871 yilda tashkil topgan . Bu mintaqada asosan rus millatiga mansub fuqarolar istiqomat qilganligi sabab Eski shaharga xos mahalla tipidagi jamoa vujudga kelmagan edi. Samarqand shahri o'rta asrlarda janub tomon kengayib borgan. 1902-1906 yillari Siyob tumanidagi mahallalar to'rt dahaga bo'lingan – Qalandarxona, Hayrobod, So'zangaron, Xo'ja Ahror. Har bir dahaning nomi va unga qarashli mahallalar shahar tizimini tashkil qilgan edi. Sho'rolar davrida mahallalar tarkibini o'zgartirish siyosati amalga oshiriladi. Natijada jamoalarning soni ortib, ularni boshqarishning yangi usullari joriy qilindi.

Jumladan, Yominiy tarkibidan Oysavat, Mo'liyon tarkibidan Qalandarxona, Qavola-1 dan Ashurchirkin va Qo'shchinor, Namozgoh-1 dan Urganji, Degrezon, Mullo Qalandardan Boloi Qal'a ajratiladi. Yahudiylar mahallasi 7 qismga bo'lindi, Shayxlar mahallasi Obi Mashhadga qo'shildi, Lolazordan Devori Ko'ndalang, Puli Mirzodan To'qumdo'zi va Bog'i baland, jami 21 mustaqil mahalla tashkil topdi.

Xulosa. Samarqand shahrining topografiyasini muqaddas joylar prizmasi orqali tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, muqaddas ob'ektlar nafaqat shaharning ma'naviy qiyofasini, balki uning ma'muriy-hududiy tuzilishini shakllantirishda ham muhim rol o'ynagan.

Birinchidan, muqaddas markazlar ma'naviy-diniy va ijtimoiy-iqtisodiy tayanch nuqtalar sifatida faoliyat yuritib, mahallalar paydo bo'lishining yadrosi bo'lib xizmat qilgan. Ikkinchidan, ular infratuzilmani joylashtirish, bozorlar va turar-joy mahallalarining paydo bo'lishiga ta'sir ko'rsatdi. Samarqand topografiyasi asrlar davomida maxsus diniy maqomga ega bo'lgan joylar bilan chambarchas bog'liq holda shakllangan: maqbaralar, masjidlar, xonaqohlar shahar hayoti va aholi punktlarining tuzilishini belgilab bergen.

Sovet davri shaharning muqaddas qadamjolari topografiyasiga tubdan o'zgarishlar kiritdi, ammo muqaddas nuqtalarning katta qismi shahar aholisi ongida o'z identifikatsiya salohiyatini saqlab qoldi. Postsoviet davrida ular qayta tiklandi va milliy meros darajasiga ko'tarildi, bu mahalliy o'ziga xoslikni mustahkamlashga, turizmni rivojlantirishga va tarixiy xotiraga asoslangan shahar tuzilishini tiklashga yordam berdi.

Shunday qilib, Samarqandning muqaddas joylari nafaqat diniy ibodat ob'ektlari, balki hududiy rejalashtirish, shahar va shahar atrofi muhitida yangi aholi punktlarini shakllantirishning kuchli vositalari bo'lib xizmat qiladi.

Mustaqillik davrida Samarqand ziyoratgohlari shahar hayotida yana markaziy o'rin egalladi. Ular zamonaviy shahar makonini shakllantiradigan ma'naviy va shaharsozlik ustunlariga aylandi.

Muqaddas qadamjolarni tiklash, ularni ijtimoiy va madaniy hayotga integratsiya qilish orqali tarix va zamonaviylik, ma’naviy an'analar va shahar rivojlanishi o‘rtasidagi bog‘liqlik tiklandi. Bugungi kunda ziyyaratgohlar nafaqat arxitektura va diniy e’tiqod yodgorliklari, balki milliy o‘ziga xoslik, barqarorlik va jamoat birdamligining ramzidir. Ularning Samarcanddagi roli diniy doiradan tashqarida-ular madaniy siyosatning asosiy elementlari, ilhom manbalari va kelajak uchun asoslarga aylandi.

Samarqandda mustaqillik davri muqaddas makonlarni rekonstruksiya qilish, tiklash va o‘zgartirishning keng ko‘lamli jarayonlari bilan belgilandi. Ushbu o‘zgarishlar ma’naviy hayotning tiklanishiga, diniy funksiyalarning ziyyaratgohlarga qaytishiga va madaniy turizmning faollashishiga yordam berdi. Biroq, shu bilan birga, ular katta yo‘qotishlar bilan birga bo‘ldi: kichik muqaddas ob’ektlarning yo‘q bo‘lib ketishi, an'anaviy shahar muhitining qisman yo‘qolishi, mahallalarning kundalik hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan urf-odatlarning yo‘qolishi bilan kechdi.

Mustaqillik davrida Samarcanddagi ziyyaratgohlarni muqaddas qadamjolarga aylantirish va moslashtirish jarayonlari madaniy siyosat, ijtimoiy hayot va shahar makonining keng o‘zgarishini aks ettirdi. Bir tomonidan, ziyyaratgohlarga tarixiy-madaniy qadriyat va ma’naviy ramz maqomi qaytarildi, boshqa tomonidan, ular zamonaviy shahar muhitiga moslashdi, turizm, ta’lim va madaniy brendingning bir qismiga aylandi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro’yxati:

1. Muallif ushbu xulosaga M.A. Nabirayeva tomonidan tuzilgan o’rta asrlar Samarcand topografik xaritasini o’rganish asosida kelgan.
2. Абрамов М. Гузары Самарканда. Ташкент-1989. С.11-12
3. Каттаев К. Самарқанднома. Тошкент-2017. 65-66 бетлар.
4. Абу Хофс Нажмиддин Умар ан-Насафий ас-Самарқандий. Қандия. Тадқиқот, таржима, сўзбоши, изоҳ ва луғатлар муаллифи Комилхон Каттаев. Самарқанд-2016. 20-бет
5. Каттаев К.Самарқанднома. Тўртинчи тўплам. Тошкент: Mashhur-press, 2017. 60-b.
6. Абу Хофс Нажмиддин Умар ан-Насафий ас-Самарқандий. Ал-қанд фи тарихи Самарқанд (Қандия) Тадқиқот, таржима, сўзбоши, изоҳ ва луғатлар муаллифи Комилхон Каттаев. Тошкент, “Qaqnus” нашриёти 2020. 28 б.
7. Вяткин В.Л. Отчет о раскопках, произведенных в октябре 1904 года в местности Намазгох близ г. Самарканда // Известия Русского комитета для изучения Средней и Восточной Азии в историческом, археологическом, лингвистическом и этнографическом отношениях. № 7. 1907, С.12-20

8. Кочнев Б.Д. Средневековые загородные культовые сооружения Средней Азии. Ташкент: Фан, 1976. С.35-36.
9. Кочнев Б.Д. Средневековые загородные культовые сооружения Средней Азии. Ташкент: Фан, 1976. С.3.
10. O'zMA, I-18 fondi, 1-ro'yxat, 9854-ish, 4-bet.
11. Абрамов М. Гузары Самарканда. Ташкент-1989. С.47
12. Справочная и статистическая свидения по Самаркандской области. СКСО. Вып.1. 1891, С.1.